O‘SMIRLARDAGI AGRESSIV HOLATLARDA OILANING ROLI VA AHAMIYATI

Ismailova Guljahon

Annotatsiya. Hozirgi kunda o‘smirlar orasida avj olayotgan agressiv holatlar ularning yuzaga kelishi va kelib chiqishi sabablari.Agressiv holatlarning avj olishida oiladagi muhit ota onaning tarbiya jarayonidagi xatolari .

Agressiv xulqli osmirlarning ijtimoiy-ruhiy holatlarini quyidagi usullarda tashxislash keng qollaniladi. AQSh, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Yaponiya,O`zbekiston kabi davlatlarda ruhiy tashxis qoyish uslublari bilan mutaxassislar izchil faoliyat olib boradilar.

Agressiv xulq shaxsning ma’naviy buzuqlikka asoslangan, boshqarishning ichki dunyosiga ochiqdan-ochiq salbiy ta’sir o‘tkazib, tajovuz qilib, uni izdan chiqarishga qaratilgan g‘ayriinsoniy xususiyat. Agressiv xulqning shakllanishi, kuchayishi va namoyon bo‘lishi ko‘pincha ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda yuz beradi.

Inson xulq-atvori, psixologik xususiyatlari bilan bog'liq masala insoniyatni qadim zamonlardan buyon qiziqtirib kelgan. Bu sohada izlanish olib borgan ko‘plab olimlar insonning tug'ilganidan boshlab shakllanishi bilan bog‘liq barcha hodisalarni o‘rganishni tadqiq qilish orqali, uning o‘ta murakkab jihatlarini kashf etgan. Ma’lumki, destruktivlik o‘z navbatida agressiya (tajovuz) kabi asosiy insoniy xususiyat bilan bog‘liq. Bizning fikrimizcha, agressiv xulq-atvor - og‘ma xulq-atvorning alohida turi emas, u boshqalarga yoki o'ziga yo‘naltiri!gan, xulq-atvor deviatsiyalarining turli shakllarida bevosita ishtirok etadi va maxsus tadqiq etishni talab qiladi.Insoniyatning butun tarixi shuni ko‘rsatadiki, agressiya shaxs va jamiyat hayotining ajralmas bo‘lagidir. Bundan tashqari, agressiya kuchli jalb qilish kuchiga ega va yuqumlidir - ko‘pchilik insonlar agressiyani og‘zaki rad etsada, ammo o‘zlarining kundalik hayotida uni keng namoyon qiladilar. Agressiya atamasi lotin tilidan tarjima qilganda “agressiya”- “tajovuz qilish” ma’nosini angalatadi. Hozirgi vaqtda agressiya atamasi juda keng qo‘llaniladi.

Davrlar boyicha o’rganilganda eng ko’p agressiyaga moyillik o’smirlik davriga to’g’ri kelishi aniqlangan. Agressiya o’smirlarda yuzaga kelgan ijtimoiy vaziyat, hodisalar ustidan o’ziga xos nazorat qilishning maqbul usuli sifatida qabul qilinadi. G’.B.Shoumarov fikriga ko’ra, o’smirlik davrining og‘ir, murakkab davr ekanligi ko’plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog‘liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari:jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun-mohiyati ham o’zgaradi. Bu davrda o’smir hayoti, ruhiyati, organizmining fiziologik jarayonlari, uning ijtimoiy holatida jiddiy o’zgarishlar sodir bo’ladi. Aksariyat vaziyatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan turli
xil holatlar kuzatiladi.

Agressiyaning odatiy ko‘rinishlari quyidagiiar hisoblanadi: nizo chiqarish, bosim o‘tkazish, majburlash, tilining yomonligi, negativ baholash, hamla qilish yoki jismoniy kuchni qo‘llash. Agressiyaning yashirin shakllari aloqadan qochish, kimgadir zarar yetkazish maqsadiga befarqlik, o‘ziga ziyon yetkazish va o‘z joniga qasd qilish kabi ko'rinishlarda namoyon bo‘ladi.Agressiv xulq oilada o’smirning erkinliklari haddan ziyod chegaralanganda yoki unga haddan ziyod erkinliklar berilganda ham shakllanishi mumkin. Agar o’smir oilada barcha ehtiyojlarining tezlik bilan qondirilishiga o’rganib qolgan bo’lsa, tengdoshlari jamoasida uning ehtiyojlariga to’sqinlik qilganlarga nisbatan agressiv munosabat bildiradi. Oilada emotsional inkor etilganlik holatlarida ham o’smirlar agressiv xulq ko’rinishlari bilan o’zlariga e’tiborni qaratishga harakat qiladilar. Ota-onaning

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

o'smir xulqidagi o'zgarishlar sababini izlashi yuzaga kelgan muammolarni konstruktiv tarzda hal etishi asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Agar o'smirning oila a'zolari muntazam tarzda o'zaro nizolar, baqiriqlar orqali ta'sir o'tkazish asosida muammolarini hal etishga o'rgangan bo'lsalar, boshqa ijtimoiy vaziyatda o'smir aynan o'zini shunday tutishga intiladi.

Eng bahsli muammolardan biri shaxsning agressiv xulq-atvoriga ommaviy axborot vositalarining ta'siri muammosini hisoblash mumkin. OAV negativ ta'sirining tarafdorlari quyidagi ma'lumotdan kelib chiqadilar, insonlar qachon o'zini agressiv tutadilar, eng avvalo boshqalar agressiyasini kuzatib turib. M.Xyusmann bir guruh tadqiqotchilar bilan 20 yil davomida teleko'rsatuvlar ko'rish va agressivlik orasidagi korrelyatsiyani kuzatganlar. Ular aniqlashicha, 30 yoshda sodir etilgan jinoyatlarning og'irligi, 8 yoshda ko'radigan ko'rsatuvlarning afzalliklari bilan to'g'ri keladi. Televidenie orqali agressiv xulq-atvorni shakllantirish mexanizmi quyidagi ko'rinishga ega bo'lishi mumkin: me'yoridan ortiq teleko'rsatuvlarga qiziqish - agressiv xayollar — o'zini personaj (qahramon) bilan taqqoslash - muammolarning yechimi va insonlarga ta'sir ko'rsatishning agressiv usulini o'ziashtirish — agressiv harakatlami takrorlash - shaxslararo munosabatlarda muammolarni yechish uchun agressiyani qo'llash - qo'llab-quvvatlash - agressiv odatlar - rivojlanmagan ijtimoiy va o'quv ko'nikmalari - frustratsiya - teleko'rsatuvlarni me'yoridan ortiq ko'rish va boshqalar.

Shuningdek, osmirlarda aniqlangan nizokashlik togrisidagi tasavvurlar mohiyatan oiladagi ozaro munosabatlarga , nafaqat ota-ona bilan, balki aka-ukalar, opa-singillar ortasidagi muomala xarakteriga ham bogliq ekanligini takidlaydi.Demak birinchi orinda Kadirova aytganidek oilaviy muhit osmir psixikasiga katta tasir qilishi mukin ekanligini takidlab otkan.Osmir yoshidagi yoshidagi bolalar bilan suhbatlashganimizda savol berganimizda agar sizning kimdir jahlingizni chiqardi uyda maktabda qanday yol tutgan bolar edingiz deganida bitta oquvchi qiz menda hech qanday uyda chahlimni chiqaradigan inson yoq uyda hech kim bir biriga jahl qilmaydi deb javob bergan edi.Bundan korinib turibdiki,oiladagi muhit albatta bola psixikasiga katta tasir qiladi.Buning natijasida esa bolada agressiya yuzaga keladi va agressiv javob reaksiyasi paydo boladi.Osmirning xarakterida ham ozgarishlar yuzaga kela boshlaydi.

Hech qanday ijtimoiy faoliyatda odamzodning o'z-o'ziga ishonchi tarbiya ishidagidek namoyon bo'lmaydi. Hayot tajribasi, pedagogik praktika va o'smirlar bilan muomala ularni tushunishda juda katta yordam beradi, albatta. Lekin bu psixologiya va pedagogikani chuqur o'rganish zaruriyatini sira inkor etmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Osmirni organish umumiy tarzda uch vazifani hal etishni kozda tutadi: osmirni oqitish va tarbiyalash uchun uning eng qulay xususiyati va imkoniyatlarini aniklash, uni oqitish va tarbiyalashda foydalanadigan vositalarning samaradorligini baholash. Osmirlar bilan olib boriladigan ishning barcha bosqichlarida bu vazifalar pedagog uchun har xil ahamiyat kasb etadi.

Oziga ijobiy baho berishga orgatish, xavfsizlikni tekshirish. Ozining va ozgalarning emotsiya va tuygularini anglashga orgatish, diskruktiv emotsiyalarni nazorat qilishni yaxshilash; o`ziga va atrofdagilarga ziyon yetmaydigan gazabni tuzatish usullarga o`rgatish, muammoli vaziyatda bola xulq-atvorida konstruktiv reaktsiyalarga o`rgatish va disstruktiv vositalarni bartaraf etish;. ota-onalar pedagoglar bilan konsultatsiyalar (bolalardagi agressiyani borttiruvchi jixozni belgilashga) orgatish. Bolalarda tajovuzkor xatti-harakatlarni o'rganishning asosiy usullaridan biri bu boshqa birovning tajovuzkorligini kuzatishdir. O'z uyida zo'ravonlikka duch kelgan va o'zlari zo'ravonlik qurboniga aylangan o'smirlar tajovuzkor xatti-harakatlarga moyil. Agressiyaga o'rgatishning eng

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

munozarali manbalaridan biri bu ommaviy axborot vositalaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yu.Asadov, R.Musurmanov. Osmirlar deviant xatti-harakatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Oquv-metodik qollanma. T: Sano-standart 2011
2. Agressiv Osmirlar Alohida Xususiyatlarining
3. Ijtimoiypsixologik Tashxisi Ganjiyev Feruz Furqatovich Buxoro Davlat Unversiteti Psixologiya Va Sotsiologiya Kafedrasi Dotsenti (Phd)
4. O'smirlarda Agressiv Xulq-Atvor Shakllanishiga Ta'sir Etuvchi Omillar. Mirzayeva Sarvinoz Hasan Qizi (1)
5. O'smirlarga Xos Agressivlik Va Uning Ko'rinishlari Abirqulova Shoxsanam Shuhrat Qizi, Magistr, Jdp(2).
6. L.Ya.Olimov, A.M.Nazarov Xulqi Og'Ishgan Bolalar Psixologiyasi Toshkent«Tafakkur Avlodi» 2020 117 118 135 Betlar
7. So'ngi Ilmiy Tadqiqotlar Nazariyasi 9-Sonrespublika Ilmiy-Uslubiy Jurnali 13.04.2023 O'smirlarda Agressiv Xulq-Atvorning Shakllanishi.Sanaev Alisher Komilovich

Kadirova A.T. 0 'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risida ijtimoiy tasawurlaming ikkilanishi: Psixol. fan. nomz.dis. —T.: 0 'zMU, 2007. — 146 b.9 X-16 Xakimova I.M. Deviant xulq-atvor psixologiyasi: O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 143 b.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.